



KO'RISH A'ZOSIDA INFEKSIYALAR VA ULARNI DAVOLANISH USULLARI

Shermatov Xolbek Faxriddinovich

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot
fakulteti o'qituvchisi*

Urolova Sevinch Murodilla qizi

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot
fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'rish a'zosida uchraydigan infeksiyon kasalliklar, ularning etiologiyasi, klinik belgilar, tashxislash va zamonaviy davolash usullari ko'rib chiqilgan. Ko'z infeksiyalari ko'p hollarda bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar va parazitlar sababli yuzaga keladi. Maqolada kon'yunktivit, keratit, blefarit kabi keng tarqalgan infeksiyalar, ularni aniqlash va davolashda qo'llaniladigan muolajalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ko'z infeksiyalari, kon'yunktivit, keratit, blefarit, antibiotiklar, antiviral terapiya, antifungal vositalar, tashxis.

ИНФЕКЦИИ ОРГАНА ЗРЕНИЯ И МЕТОДЫ ИХ ЛЕЧЕНИЯ

Уролова Севинч Муродиллаевна

Шерматов Холбек Фахриддинович

*Студентка медицинского факультета Термезского
университета экономики и сервиса*

*Преподаватель медицинского факультета Термезского
университета экономики и сервиса*

Аннотация: В данной статье рассматриваются инфекционные заболевания органа зрения, их этиология, клинические признаки, методы диагностики и современные подходы к лечению. Глазные инфекции в большинстве случаев возникают из-за бактерий, вирусов, грибов и паразитов. В статье анализируются такие распространенные заболевания, как конъюнктивит, кератит и блефарит, а также методы их выявления и лечения.

Ключевые слова: глазные инфекции, конъюнктивит, кератит, блефарит, антибиотики, противовирусная терапия, противогрибковые препараты, диагностика.





INFECTIONS OF THE VISUAL ORGAN AND THEIR TREATMENT METHODS

Urolova Sevinch Murodilla qizi
Shermatov Xolbek Faxriddinovich

Student of the Faculty of Medicine, Termez University of Economics and Service
Teacher of the Faculty of Medicine, Termez University of Economics and Service

Abstract: This article examines infectious diseases of the visual organ, their etiology, clinical symptoms, diagnostic methods, and modern treatment approaches. Eye infections are most often caused by bacteria, viruses, fungi, and parasites. The article analyzes common infections such as conjunctivitis, keratitis, and blepharitis, as well as the treatments applied for their diagnosis and management.

Keywords: eye infections, conjunctivitis, keratitis, blepharitis, antibiotics, antiviral therapy, antifungal agents, diagnosis.

KIRISH: Ko‘z infeksiyalari inson ko‘rish qobiliyatini jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan patologiyalar qatoriga kiradi. Infeksiyalar ko‘pincha tashqi muhit omillari, immunitetning pasayishi, gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik va surunkali kasalliklar sabab yuzaga keladi.

Ko‘z infeksiyali kasalliklarining asosiy sabablari bakterial infeksiyalar, ya‘ni *Staphylococcus aureus*, *Streptococcus pneumoniae*, *Pseudomonas aeruginosa*. Shuningdek, virusli infeksiyalar orqali Gerpes simplex virusi (HSV), adenoviruslar, zamburug‘li infeksiyalarga *Candida albicans*, *Aspergillus*, parazitlar infeksiyalar esa *Acanthamoebalar* orqali qo‘zg‘atiladi va kasallikni keltirib chiqaradi.

Ko‘z infeksiyalari bemor hayot sifatini pasaytiradi, shuningdek, kech aniqlangan hollarda ko‘rlikka olib kelishi mumkin.

USULLAR: Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. **Adabiyotlar tahlili:** So‘nggi yillardagi ilmiy maqolalar va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlari asosida ko‘z infeksiyalarining turlari va davolash strategiyalari o‘rganildi.
2. **Klinik kuzatishlar:** Termez shahridagi oftalmologik markazda 50 nafar bemor ishtirokida o‘tkazilgan kuzatishlar asosida infeksiyaning klinik belgilarini aniqlash va davolanish samaradorligi tahlil qilindi.
3. **Laboratoriya tekshiruvlari:** Biologik materiallar bakteriologik ekish, polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) va mikroskopik tekshiruvlar orqali aniqlangan.

NATIJALAR: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, eng ko‘p uchraydigan ko‘z infeksiyalari quyidagilar:

1. **Kon’yunktivit** – eng keng tarqalgan infeksiya turi.





Bakterial kon'yunktivit: Ko'z yoshi va oqindi namunalari tahlilida *Staphylococcus aureus* 40% holatda aniqlangan.

Virusli kon'yunktivit: Adenoviruslar sababli yuzaga kelgan holatlar 30% ni tashkil etdi.

2. **Keratit** – ko'z shox pardasi infeksiyasi.

Zamburug'li keratit: *Candida albicans* sababli paydo bo'lgan hollarda davolanish uzoq davom etdi.

3. **Blefarit** – ko'z qovoqlarining yallig'lanishi.

Etiologik omillar: bakterial infeksiyalar va demodeks parazitlari.

Davolash usullari:

Bakterial infeksiyalarda: *Moksifloksatsin* va *Ofloksatsin* kabi antibiotik tomchilari samarali bo'ldi.

Virusli infeksiyalarda: *Atsiklovir* va *Valatsiklovir* preparatlari qo'llanildi.

Zamburug'li infeksiyalarda: *Natamitsin* va *Vorikonazol* asosida davolash o'tkazildi.

MULOHAZA: Tadqiqot natijalari ko'z infeksiyalarining keng tarqalganligi va ularni erta aniqlashning muhimligini ko'rsatdi. Bakterial kon'yunktivitlar antibiotik tomchilar yordamida qisqa muddatda davolansa, virusli va zamburug'li infeksiyalar uzoq muddatli muolajani talab qiladi.

Ko'z gigiyenasi qoidalariga rioya qilmaslik va kontakt linzalardan noto'g'ri foydalanish keratitning rivojlanishiga olib keluvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi.

Tavsiyalar:

1. Aholi orasida ko'z gigiyenasi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish.
2. Kontakt linzalardan foydalanishda gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish.
3. Ko'z kasalliklari alomatlari sezilganda oftalmologga murojaat qilish zarurligini ta'kidlash.

XULOSA: Ko'z infeksiyalari zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri davolash ko'rish qobiliyatini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta tashxis va zamonaviy davolash usullari infeksiyalar asoratlarini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ). Рекомендации по лечению глазных инфекций. Женева; 2021.
2. Kanski JJ, Bowling B. *Clinical Ophthalmology: A Systematic Approach*. 8th ed. London: Elsevier; 2016.
3. Azar DT, Kanellopoulos AJ. Diagnosis and management of infectious keratitis. *Cornea*. 2020;39(2):201-207.





4. Tseng SC, et al. Advances in treatment of viral keratoconjunctivitis. *Ophthalmology*. 2019;126(4):623-632.
5. Al-Mujaini A, et al. Bacterial keratitis: perspective on epidemiology, clinico-pathogenesis, diagnosis, and treatment. *International Journal of Ophthalmology*. 2019;12(3):367-376.
6. Kenjayev Y.M., Berdieva S.A., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti. "Yurak bo'lmacha va qorinchalari gipertrofiyasining elektrokardiografiya belgilari o'zgarishlarini tahlili."
7. Mamatqulovich K. Y. Me'da osti bezi o'tkir va surunkali pankreatit kasalliklarini gistomorfologik tahlili //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 49-53.
8. Mamatqulovich K. Y. et al. Glomerulonefrit kasalligida klinik laborator tahlillarning o'rni va samaradorligi //American journal of applied medical SCIENCE. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 112-120.
9. Mamatqulovich K. Y., Ismatulloevich X. I., Xabibullo o'g'li C. S. Ko'kyo'tal kasalligi va uni oldini olish chora-tadbirlari //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 4. – S. 18-21.
10. Mamatqulovich K. Y., Fayzullayevna R. S. Husnbuzarlar etiologiyasi, klinikasi va davolash chora-tadbirlari //American journal of applied medical science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – S. 126-130.
11. Kenjayev Y. "Bio eko texno" ma'suliyati cheklangan jamiyatga qarashli maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash korxonasi xodimlarining salomatligi //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – №. 2. – S. 172-176.
- 12.

